

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Inqilobiy favqulodda komissiya aygʻoqchilari koʻmagida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qoʻlga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin maʼlum boʻladi. Fitrat, Choʻlpon, Ayniy va boshqa shoirlar Behbudiyga atab marsiyalar yozganlar. Qarshi shahri 1926–1937-yillar davomida Behbudiy nomi bilan atalgan. 1977-yili allomaning “Saylanma” asarlari chop etildi. U xalqni oʻzligini anglashga, huquq va erkinligini chuqur bilishga hamda ilmu-maʼrifatli boʻlishga yoʻnaltiradi. Maʼrifatparvar Behbudiy ham nazariy ham amaliy jihatdan oʻzi namuna boʻladi. Yana bir mutafakkirimiz Munavvarqori Abdurashidxonov xalqni savodxon maʼrifatli qilish, maktab va madrasalardagi oʻqish va oʻqitish, fuqarolarning taʼlim olish huquqi hamda ularni taʼminlash boʻyicha oʻz qarashlarini qoldirgan. U oʻzining xotiralarida yozishicha, jadidlarning bosh shiori va maqsadi oʻta teran, mazmunli va uchta soʻzdan iborat: "Ozodlik, tenglik, adolat" soʻzlari ularga dasturamal boʻlgan. U ilm-fanning jamiyat taraqqiyotidagi oʻrniga yuksak baho berib, diniy va dunyoviy ilmlar bilan bir qatorda zamonaviy fanlarni ham oʻrganishga chaqiradi. "Ilm odamning zehnini ochar, aqlini ortirar, bilmagan narsalarini bildirur, dunyoda baxtli va izzatli qilur. Oxiratda saodatli va shafolatli qilur" degan sermazmun gʻoyalarida ilm olishning afzalliklarini aytib oʻtgan. Uning aytishicha agar ota-onalarimiz va ustozlarimiz bizga bilganlarimizni oʻrgatmagan boʻlsalar edi, biz hech narsani bilmas edik. Haqiqatdan ham bilim olish insonni yuksaklarga koʻtaradi. Uning hayot yoʻlini ravon qiladi. Taʼkidlash joizki, Mahmudxoʻja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovlar jadidlar siyosiy partiyasining ham dasturlarini ishlab chiqishda yetakchilik qilganlar. Jumladan, "Turk adami markaziyat firqasi"ning Maromnomasi va Nizomnomasini ishlab chiqqanlar. Ushbu hujjatlarda ilm, fan va maorif sohalariga alohida eʼtibor qaratganlar. "-Taʼlim olish huquqi - jinsi, millati va dinidan qatʼiy nazar barchaga beriladi" -deb kiritilgan bandida millat va xalqning barcha qatlamlarini taʼlim olishlari uchun teng huqularga egaliklari koʻrsatilib, ijtimoiy adolatning roʻyobga chiqishiga zamin yaratganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Qosimov S. Behbudiy va jadidchilik. „Oʻzbekiston adabiyoti va sanʼati“1990-yil
2. 19,26-yanvar.
3. Qosimov Behbudiy Karvonboshi. „Yoshlik“) jurnali, 1990-yil, 1-son.
4. Aliev A. Mahmudxoʻja Behbudiy. T., 1994.

GLOBAL ISISHNING ASOSIY OMILLARI VA YECHIMIMLARI

Qosimov Bexruz

*JIDU, “Xalqaro iqtisodiyot va menegment”
fakulteti 2-bosqich talabasi.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Qisqa sharh: Bu maqolada global isishning asosiy sabablari va keltirib chiqaradigan asosiy oqibatlar haqida keng ma’lumotlar berib o’tilgan. Shuningdek, siz bu maqolada global isishning yechimlari va bu muammoni keltirib chiqaradigan asosiy omillardan qanday qilib saqlanish kerakligi haqida ham bilib olasiz.

Kalit so’zlar: Issiqxona effekti, global iqlim, karbonat angidrid, qoldiq va qazilma yoqilg’ilar, sanoat gazlari, anomal issiqlik, issiqxona qatlami.

Hozirgi kunda dolzarb bo’lgan muammolardan biri bu global issiqlik. Global isish bu sayyoradagi umumiy haroratning uzoq muddatli isishi. Global isish karbonat angidrid va boshqa havo ifloslantiruvchi moddalar atmosferada to’planib quyosh nurlari va yer yuzidan tushgan quyosh nurlarini o’zlashtirganda sodir bo’ladigan jarayon. Bu jarayonda gazlar quyoshdan kelgan issiqlikni ushlab turadi, bu esa sayyoraning asta-sekin isishiga olib keladi. Bu jarayonni yana inson faoliyati, karbonat angidrid, metan va azot oksidi kabi issiqxona gazlarining chiqishi tufayli Yer yuzasining o’rtacha harorati uzoq muddatga oshishi deb ham ta’riflasak bo’ladi. Lekin haroratning bunday keskin va juda yuqori darajada oshishi atrof-muhitga turli xil salbiy ta’sir ko’rsatadi. Jumladan muzliklarning erishi, dengiz sathining ko’tarilishi, ba’zi hayvonlar va o’simliklarning qirilib ketishi va ekotizimlarning o’zgarishi. Bu muammoning yana bir salbiy tarafi shundaki, global issiqlik odamlar organizmiga ta’sir ko’rsatib, surunkali kasalliklar, bezgak va boshqa kasalliklarni keltirib chiqaradi va odam organizmini ham zararlaydi. Bu xavfli kasalliklar va salbiy oqibatlarga turli xil omillar sababchi bo’lishi mumkin.

Global isishning kuchayishiga olib keladigan asosiy omillar:

- 1-issiqlxona effekti⁴⁴
- 2-qoldiq yoqilg’ini yoqish
- 3-o’rmonlarni yo’q qilish
- 4-organik moddalarning parchalanishi
- 5-tabiiy gaz va neft qazib olish

Bu faktorlar orasiga biz yana yoqilg’ida yuradigan transport vositalar faoliyati, energiya iste’moli, qishloq xo’jaligi faoliyati, atmosfera yoki sanoat gazlari va ozon qatlamining buzilishi kabi omillarni ham qo’shsak bo’ladi. Bu faktorlarning barchasi global issiqlikka ta’sir qiluvchi omillar bo’lib, yer yuzida havo isishiga sababchi bo’ladi. Global issiqlikning odamlar salomatligiga ta’sirini oldini olish uchun yuqumli kasalliklarni davomiy kuzatish va tahlil qilish, odamlarni har-xil xavfdan erta ogohlantirish tizimlarini rivojlantirish, sog’liqni saqlab infratuzilmasini yaxshilash va issiqxona gazlari chiqindilar miqdorini kamaytirish kabi chora tadbirlar amalga oshirilishi zarur. Bundan tashqari, sog’liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va jamiyatning sifatli mahsulot iste’mol qilishini targ’ib qilish global issiqlikning sog’liqqa ta’sirini yumshatish uchun juda muhimdir.

⁴⁴ Issiqxona effekti quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Yuqorida sanab o'tilgan omillarning eng zararlisi bu issiqxona effekti. Issiqxona effektining asosiy kelib chiqish sabablari bu: sanoat gazlari chiqishi va ular Yerda to'planib qolishi, o'rmonlarning kesilishi va qazilma yoqilg'ilardan keng miqyosda foydalanishdir. Bu jarayonda Yer Quyoshdan kelgan nurning ma'lum qismini yana koinotga qaytaradi. Biroq, ushbu hodisada atmosferada to'planib qolgan notabiiy gazlar Quyosh nurlarini o'ziga yutadi. Natijada iqlimga ta'sir etadigan issiqxona qatlami⁴⁵ hosil bo'ladi. Bu hodisa oqibatida esa yer yuzi me'yoridan ortiq qiziydi va sutkalik eng yuqori va eng past harorat orasidagi farq kichik bo'ladi.

Issiqxona effektini oldini olish uchun biz qayta tiklanadigan manbalarga o'tishimiz, o'rmon yong'inlarini oldini olishimiz, ekologik toza qishloq xo'jaligini joriy qilishimiz, tejamkor va havoni ifloslantirmaydigan transport vositalaridan foydalanishimiz hamda tuproq tarkibidagi organik moddalarni saqlashimiz kerak bo'ladi.

Global isishning yana bir katta omili bu – daraxtlarni kesib tashlash va o'rmonlarni vayron qilish. O'rmonlar yer yuzasining 30% ni egallashi va bu bizning sog'lig'imizga juda ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, har yili gektarlab o'rmonlar vayron qilinadi. Bularning barchasi odamlarning e'tiborsizligi tufayli ro'y berishi mumkin. Misol uchun: hozirda ko'plab davlatlarda o'rmon va shunga o'xshash manzarali hududlarga tashrif buyurayotgan turist va mehmonlarning e'tiborsiz qoldirilgan gulxanlari alanga olib, butun bir o'rmonni yonib ketishiga sababchi bo'lib qolmoqda. Lekin boshqa tomondan olib qaraganda, odamlar daraxtlarni o'z manfaatlari uchun ruxsatsiz kesib, ularni sotayapdi yoki kesilgan daraxtlardan boshqa maqsadda foydalanayapdi. O'rmonlarning vayron bo'lishiga esa faqatgina odamlar aybdor emas, ya'ni faqatgina odamlarning faoliyati tufayli o'rmonlar vayron bo'lmayapdi. Bunga boshqa omillar ham ta'sir qilishi mumkin. Misol qilib tabiat hodisalarini olishimiz mumkin. Chaqmoq va yashinlar tufayli ba'zi hududdagi o'rmonlarda yong'in kelib chiqyapdi va ko'plab daraxtlar vayron bo'lishiga shuningdek, havo zaharlanib, odamlarni yarador bo'lishiga yoki halok bo'lishiga ham olib kelyapdi. O'rmonlarning yo'q bo'lib ketishi esa issiqxona effekti bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni karbonat angidridni yutadigan va shu bilan atmosferadagi gazlar miqdorini kamaytiradigan daraxtlar juda ko'p emas. Bu esa issiqxona effektini oshishiga sabab bo'ladi.

O'rmon kesilishini asosiy sabablari qishloq xo'jaligi faoliyati, chorvachilik va qog'oz ishlab chiqarish. Buni oldini olishimiz uchun biz o'rmonlarni chorvachilik va qishloq xo'jaligi tufayli keskin kesilishini taqiqlashimiz va qog'oz iste'molini kamaytirishimiz lozim. Misol uchun: daraxtlarni kesib tashlagan yoki o'rmonlarda bexosdan yong'in chiqargan odamlarga soliq solish yoki jinoiy va qamoq jazosini joriy qilish lozim.

Global isishning zararli oqibatlaridan biri bu suv sathining ko'tarilishi. Jahon okeanlari sathining ko'tarilishi tez-tez bo'ronlar va toshqinlar bilan birga kuzatiladi. Shu bilan birga, tuproq va suz tuz tufayli ifloslanadi va ko'plab hududlar yashash uchun yaroqsiz holga keladi⁴⁶.

⁴⁵ Issiqxona qatlami-troposfera(atmosferaning quyi qatlami) da to'plangan gazlar to'plami.

⁴⁶ BMT(Birlashgan Millatlar Tashkiloti) bosh kotibi Antonin Guterishning bergan intervyusidan.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

2100 yilga kelib esa yerdagi global isishning hozirgi sur’atida muzliklarning 68 foizi yo’q bo’lib ketishi mumkin⁴⁷.

Hozirgi kunda nafaqat yozda balki qishda ham havo va iqlim o’z injiqligini ko’rsatmoqda. Global isishni yana yong’inni ko’payishi, qurg’oqchilik va ba’zida yomg’ir yog’ib birdan hamma joyni suv bosishidan ham bilib olishimiz mumkin. Agar global isishni tahlil qiladigan bo’lsak, havo harorati 30 yilga solishtirganda 1 gradusga ko’tarilgan. Bu raqam unchalik qo’rqinchli tuyulmasligi mumkin, lekin aslida holat shunday davom etsa muzliklar erishi va dengiz sathining ko’tarilishi

yaqqol ko’zga tashlanishi mumkin. Olimlar agar issiqxona gazlarining⁴⁸ tarqalishi to’xtatilmasa, Yer sayyorasining o’rtacha harorati 4 gradusgacha ko’tarilishini tahmin qilmoqda. Bu holat esa Yerning ko’p qismini insonlar uchun yaroqsiz holatga keltirib qo’yadi. Shuningdek so’ngi tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, Yer sayyorasining iqlimi tez sur’atlar bilan o’zgarib bormoqda. Issiq to’lqinlar, bo’ronlar va qurg’oqchilik kabi ekstremal ob-havo hodisalari tez-tez kuzatilib, kuchliroq va xavfliroq bo’lib bormoqda. Global haroratning oshishi ekotizimlarga, inson salomatligiga va butun dunyo bo’ylab iqtisodiy barqarorlikka jiddiy ta’sir ko’rsatmoqda.⁴⁹

Olimlarning ta’kidlashicha, so’ngi 25 yoki 30 yilda iqlim yanada issiqlashadi va ob-havo sharoiti keskinlashadi. Bu esa bizning sayyoramizdagi o’simliklar va hayvonlarning oltinchi ommaviy yo’q bo’lib ketishini tezlashtirishi, dengiz sathining ko’tarilishi, muzliklarning erishi, sayyoraning qurg’oq bo’yidagi shaharlarini ko’p suv bosishi yoki tsunami kuzatilishi, qurg’oqchilik kabi oqibatlarini keltirib chiqarilishi tahmin qilinmoqda. Hozirgi kunda dengiz sathining ko’tarilishi asosan Yaponiya va hatto Amerikada ham kuzatilmoqda. Masalan, dengiz sathi ko’tarilishi tufayli “Sendi” to’foni vaqtida New-Jersey va New-Yorkning 83000 ga yaqin aholisi zarar ko’rdi. Olimlar esa agar iqlim o’zgarmaganida ya’ni isimaganida bunday holat kuzatilmagan bo’lar edi deb taxmin qilishgan.

Odamlarni qiziqtirayotgan yana bir savol esa bu dengiz sathi qanchagacha ko’tarilishi mumkin? Faktlarga qaraydigan bo’lsak dengiz sathi har 100 yilda 30 dm ga ko’tarilaydi. Eng achinarlisi esa dengiz sathi ko’tarilishi mana shu sur’atda davom etaveradi. Ko’pgina ekspertlar fikriga ko’ra esa issiqxona gazlari to’xtatilsa ham dengiz sathi ko’tarilishi davom etaveradi. Ular yana vaziyat shunday davom etaversa bu ko’rsatkichlar hatto 24 yoki 30 metrga ham oshishiga ishonishadi. Odamlarni qiynayotgan yana bir savol esa bularga yechim bormi? Albatta bor, lekin buning oldini olish chun ko’p vaqt ketadi va biz buni oldini olishimiz uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga juda tez fursatda o’tishimiz lozim. Shuning bilan birgalikda global isishni oldini olishimiz uchun biz yoqilg’ida yuradigan mashinalar qatnovini kamaytirib,

⁴⁷ “Science” ilmiy jurnali 315-318.

⁴⁸ Quyoshdan olingan yorug’lik va nurlar atmosferada filtrlanadi va infraqizil radiatsiya ta’sirida bo’ladi. Ammo ba’zi gazlar yerga qaytariladi, bu gazlar esa issiqxona gazlari deb ataladi.

⁴⁹ <https://library.wmo.int/records/item/57035-global-climate-in-2015-2019#.XqhHES-r2Wj>

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

elektromobillarga o'tishimiz yoki asosan jamoat transportlari metro yoki tramvaylardan foydalanishimiz lozim.⁵⁰

Agar global isish muammosini **EVENT** tahlil qiladigan bo'lsak, bu muammoni har bir mintaqalarda, davlatlarda va shaharlarda kuzatish mumkin. Buning ishtirokchilari esa odamlar, zavodlar, mashinalar va hakazo. Odamlar tabiatni ehtiyot qilmasdan har xil chiqindilarni duch kelgan joyga uloqtirishi, daraxt va o'rmonlarni e'tiborsizlik bilan kesib yoki yoqib tashlashi buning asosiy sabablaridan biri. Mashina va zavodlardan chiqayotgan zaharli tutun va bug'lar esa global isishning yana bir asosiy omili bo'ladi. Bizning maqsadimiz esa bu muammoga yechim topish, global qatlamni yemiradigan zararli omillardan uzoqlashish va yer iqlimini normal holatga keltirish. Bu muammo bilan bog'liq maqsadimiz issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va yanada barqaror kelajakka intilish orqali unga qarshi kurashish. Shuningdek, bizning maqsadimiz global hamjamiyat sifatida harakat qilish, kelajak avlod uchun sayyorani saqlab qolish uchun kurashish va birlashishdir. Chunki birlashmasdan bu muammoni oldini olib bo'lmaydi, barcha birgalikda harakat qilish kerak, zero kuch birlikdadir.

Agar bu muammoni **CASE** tahlil qiladigan bo'lsak, so'ngi yillarda kuzatilayotgan zararli oqibatlar: suvlarning isishi va bug'lanishi, kuchli shamollar, suv toshqinlari, qurg'oqchilik va asosiysi muzliklarni erishidan iborat. Hozirgi kunda, ayniqsa, yoz oyida eng ko'p eshitadigan so'zimiz bu rekord darajadagi issiq harorat. Uch yoki to'rt asrdan buyon kuzatilmagan hodisalardan biri shu kunlarda kuzatilyapdi. Yozda kuzatilayotgan anomal issiqlik⁵¹ 1,5 ming kishining o'limiga sabab bo'ldi. Bu odamlarning ko'pi esa anomal issiqlik tufayli paydo bo'lgan o'rmon yong'inlaridan halok bo'lgan.

Misol uchun: Kanada o'z tarixidagi eng yomon o'rmon yong'inlari mavsumini boshdan kechirmoqda. Kanadaning Britan Kolumbiyasi provinsiyasida anomal issiq havo tufayli 500 ga yaqin kishi vafot etgan. Kanadada harorat 45 gradusdan oshmagan, lekin shu yili rekord ko'rsatkich 50 gradus darajagacha yetgan. Bu ko'rsatkichlar yildan-yilga oshib bormoqda va shunday davom etsa jabrlanuvchilar va o'limlar soni keskin ko'payadi⁵².

Global iqlim o'zgarishining yana bir omili bu zaharli gazlar va bug'lar. Yuqoridagi rasmda siz eng ko'p karbonat angidrid ishlab chiqaradigan davlatlar ketma-ketligini ko'rishingiz mumkin. Karbonat angidrid ya'ni havo ifloslanishiga asosiy sababchilar mashinalar va zavodlar.

Atmosferaning ifloslanishi foizlarda:

- 1- Avtomobil transporti (40%)
- 2- Energiya sanoati⁵³ (20%)
- 3- Korxona va tashkilot mahsulot ishlab chiqarishi yoki faoliyati (14%)
- 4- Qishloq xo'jaligida ish faoliyati (26%)

⁵⁰ <https://www.ipcc.ch/publication/future-climate-change-research-and-observations/>

⁵¹ Issiqlik o'z-o'zidan sovuq tizimdan issiqqa o'tadigan jarayon.

⁵² Britaniya Kolumbiyasining uy-joy uchun ma'sul vazirining 2023-yil 19-avgust kuni taqdim etgan nutqidan.

⁵³ Tabiiy resurslardan energiya manbalarini olishga qaratilgan faoliyat sohasi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Bu ma'lumotda ko'rish mumkinki havo zararlanishiga asosan avtomobillar va zavodlar ta'sir ko'rsatadi.

Lekin hozirda bu muammoni oldini olish uchun Shvetsariya va Islandiyada atmosferadan karbonat angidrid gazini so'rib oladigan zavod ishga tushdi. Bu kompaniyaning nomi Climeworks bo'lib, unda havoni to'g'ridan-to'g'ri tortib olish va tozalash texnologiyasi qo'llanadi. Bu zavodda maxsus kimyoviy moddalar bilan to'yintirilgan filtrli materialdan foydalaniladi. Ushbu filterdan o'tuvchi havo esa karbonat angidrididan tozalanadi va qayta ishlanadi. Zavod yil davomida 900 tonna gaz to'plab, uni tozzalaydi.⁵⁴

Agar global isishni **SWOT** tahlil qiladigan bo'lsak:

S- global isishning kuchli taraflari shundaki, biz osongina bu muammoni yo'q qilib yubora olmaymiz. Global issiqlik, anomal issiqlik yoki sovuqlikni oldini olish uchun asrlar ham ketishi mumkin, ya'ni bu muammo bitta harakat bilan to'xtatib qolinadigan muammo emas. Ba'zi olimlar esa global isish muammosini hatto butunlayga ham yo'q qilib bo'lmaydi deb ta'kidlaydi. Ular: "Global issiqlikni oldini olib bo'lmaydi, biz shunchaki uni bir oz muddatga harakatini pasaytirishimiz yoki jabrlanuvchilar va zararlantiruvchilar sonini kamaytirishimiz mumkin" deb o'ylaydi. Bu muammoning yana bir kuchli tomoni bu global issiqlik o'zi bilan birgalikda biz qancha zararli ofatlarni va muammolarni ham keltirishi mumkin. Bular:

- Muzliklarning erishi va suv sathining ko'tarilishi
- Qurg'oqchilik va yong'ingarchilik kamayishi
- Ba'zi o'simliklar va hayvonlarning qirilib ketishi
- Anomal hodisalarning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga ta'siri(ya'ni nobud bo'lishi)
- Atmosferada changlanish miqdori ortishi

va boshqalar.

W- global isishning kuchsiz tomonlari juda kam. Chunki agar bu muammoni kuchsiz tomonlari ko'p bo'lganida biz bu muammoni osonlikcha hal qilgan bo'lar edik va bu muammo kuchsiz bo'lganida uning nomi oldiga "global" qo'shimchasi qo'shilmagan bo'lar edi. Shunday qilib bu muammoning kuchsiz tomoni texnologiyalar va o'rmonlar. Yuqorida keltirganimdek havoni tozalovchi zavodlar faoliyati yoki ko'p o'rmonlar yaratish, bu muammo xavfini kamaytirishi mumkin.

O- global isishning bizga yaratadigan imkoniyatlari: yangi texnikalar yaratish, havo va atrof-muhitga e'tiborimizni oshirishda, daraxtlar, o'simliklar, hayvonlar va o'rmonlarga bo'lgan ehtiyotkorligimizni oshirishda juda katta yordam beradi. Chunki odamlar kelajagini, ertasini o'ylab bu muammoni oldini olishda harakat qiladi va natijada ular suvni, o'simliklarni va toza havoni qadriga yeta boshlaydi. Olimlar va ekspertlar esa bu muammoni yechishda yangi texnologiyalar o'ylab topish uchun (masalan: Shvetsariyadagi havoni tozalovchi zavod) harakat qilishadi.

⁵⁴ <https://www.undp.org/serbia/news/first-algae-air-purifier-serbia>

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

T- global issiqlik muammosini kuchli jihatlari ko'p bo'ganidek uning xaflari ham juda ko'p. Misol uchun, agar biz qazilmalarni yoqib ulardan foydalanishni, plastik va boshqa mahsulotlarni duch kelgan joyga uloqtirishni, daraxtlar kesilishini yoki o'rmonlar vayron qilinishini, mashina va zavodlardan chiqadigan zaharli gazlar miqdorini kamaytirmasak yoki oldini olmasak, ular: suv sathining ko'tarilishi, muzliklar erishi, tsunamilar⁵⁵, bo'ronlar, anomal isish, anomal sovish, havo ifloslanishi, ba'zi hayvon yoki o'simliklarning nobud bo'lishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu omillar esa insonlar hayoti uchun eng xavfli omillar sanaladi. Chunki tsunami va shunga o'xshash tabiat hodisalaridan shu paytgacha kamida 225 ming kishi vafot etgan. Global issiqlik nafaqat tsunamini, balki vulqon otilishi va shu natijasida zilzilalarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Muzliklarning erishi esa muzlikda yashovchi hayvonlar (misol uchun: pingvin, dengiz mushugi va hakazo) hayoti uchun juda xavfli.

Global issiqlik muammosini kengroq yoritish va aholini fikrini o'rganish uchun **DELFI** tahlilida so'rovnoma o'tkazildi. Bu so'rovnomadan asosiy maqsad odamlarning fikrini, ularning bu muammo haqidagi qiziqishlarini o'rganish va ularning bu muammoni qay darajada bilishini baholashdir. So'rovnomada 200 dan oshiq odam ishtirok etdi. Bu so'rovnoma asosan talabalar o'rtasida o'tkazildi va so'rovnomada:

- Havo ifloslanishining asosiy sababi nimada deb o'ylaysiz?
- Global issiqlik yoki anomal issiqlikni qanday ta'riflagan bo'lar edingiz?
- Global issiqlik ta'sirini kamaytirish va havoni ifloslanishini oldini olish uchun qanday islohotlar amalga oshirishimiz mumkin?
- Bu muammo sababli kelib chiqadigan asosiy xavf nimada deb o'ylaysiz?
- Yoqilg'ida yuradigan avtomobillar o'rniga qaysi transport vositasidan foydalangan ma'qul?

kabi savollar taqdim etildi. Bu savollarga esa ishtirokchilar quyidagicha javob berishdi:


- Global issiqlik muammosini oldini olishimiz uchun biz daraxtlarni kesmasligimiz, balki ularni ko'paytirib, tabiatni asrashimiz kerak.
- Bu muammoni oldini olishimiz uchun avvalo e'tiborli bo'lishimiz zarur. Albatta barchasini o'zimizdan boshlashimiz kerak, balkim yoqilg'ida yuradigan transport vositalaridan foydalanishni kamaytirish yoki qayta ishlashni yanada rivojlantirishimiz kerak.
- Havo ifloslanishining asosiy sabablari sanoat zavodlari va yoqilg'ida yuradigan avtomobillar faoliyati, shuningdek odamlarning atrof-muhitga e'tiborsizligi bu muammoni kuchayishiga sababchi bo'ladi.
- Global issiqlik muammosi sababli kelib chiqadigan eng asosiy xavflar muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va qurg'oqchilik.

⁵⁵ Zilzila yoki boshqa omillar natijasida yuzaga keladigan katta dengiz to'liqini.


“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

- Global isish oqibatlarini kamaytirish va havo ifloslanishining oldini olish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish, energiya samaradorligini oshirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish va toza havo texnologiyalarini joriy etish zarur.

So'rovnoma ko'ra aholining ko'p qatlami bu muammo haqida oz miqdorda bo'lsa ham ma'lumotga ega. Misol uchun: global issiqlik muammosi haqida yetarlicha ko'nikmaga egaman deb o'ylaysizmi degan savolga, 25 foiz odamlar “Ha” javobini, 31.25 foiz odamlar “Yo'q” javobini va 43.75 foiz odamlar esa “Juda chuqur bilmayman, lekin ko'nikmam yetarlicha” javobini berishdi. Bundan bilish mumkinki, odamlar bu muammoga befarq emas. Ular bu muammo haqida juda chuqur bo'lmasa ham yetarlicha ma'lumotga ega.



So'rovnoma ko'ra diagrammada shuni ko'rish mumkinki, aholining ko'p qatlami global issiqlik va havo ifloslanishining asosiy sababi sanoat zavodlari va yoqilg'ida yuradigan mashinalar faoliyati deb biladi. Shuningdek, ularning deyarli 27 foizi bu muammoning asosiy sabablari daraxtlarning kesilishi, o'rmonlarni vayron qilish va odamlarning atrof-muhitga e'tiborsizligi deb biladi.



“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

So'rovnoma asosan talabalar qatnashganiga qaralmay, yoshi katta va kichik odamlarni ham fikrlari o'rganildi. Yuqoridagi diagrammada ko'rish mumkinki bu so'rovnoma har xil yoshdagi odamlar o'rtasida o'tkazilgan. Global issiqlik muammosi qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin degan savolga 18 yoshdan kichik qatnashuvchilarning deyarli yarmi muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi deb javob berilgan. Shuningdek, ularning 33,33 foizi bu muammo qurg'oqchilikka olib keladi deb o'ylashsa, 20 foizi hayvon va o'simliklarning nobud bo'lishi global issiqlik muammosining asosiy salbiy oqibati deb biladi. 18-27 yoshlilarning deyarli 44 foizi global issiqlik muammosining salbiy oqibatlari muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi va qurg'oqchilik deb bilsa, bor yo'g'i 12 foizi hayvon va o'simliklarning nobud bo'lishi bu muammoning asosiy salbiy ta'siri deb o'ylaydi. 27-40 yoshlilar o'rtasidagi so'rovnoma esa barcha variantlar bir-biri bilan teng taqsimodga erishdi. 40 yoshdan katta aholi esa global issiqlikning birinchi o'rindagi salbiy oqibati qurg'oqchilik, ikkinchi o'rinda esa muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishi, uchinchi o'rinda esa o'simlik va hayvonlarning nobud bo'lishi degan fikrni ilgari surdi. Bundan ko'rish mumkinki, aholining ko'p qatlami global issiqlik keltirib chiqaradigan asosiy muammolar: qurg'oqchilik sodir bo'lishi yoki yong'ingarchilikning kamayishida va muzliklarning erishi va dengiz sathining ko'tarilishida deb biladi. Ba'zi o'simlik va hayvonlarning nobud bo'lishi esa qolgan ikkita faktorga qaraganda juda yuqori darajada xavfli emas ekanligi ta'kidlandi va qolganlariga qaraganda kamroq ulushga ega bo'ldi.

So'rovnoma shuningdek, aholi bu muammodan qanchalik aziyat chekayotgani yoki tashvishlanayotgani ham o'rganildi. Ulardan global issiqlik yoki anomal issiqlik sizning sog'lig'ingizga salbiy alomatlar ko'rsatyapdimi deb so'raldi. Aholining ko'p qatlami esa, anomal issiqlik tufayli ya'ni havoning qisqa vaqt ichida juda yuqori darajada ko'tarilgani tufayli odamlarda bosh aylanishi, ko'ngil aynishi yoki boshqa alomatlar kuzatilishini ayib o'tdi. Ishtirokchilardan bu muammo sizni tashvishlantiradimi yoki yo'q deb ham so'raldi. Bu muammo haqida yetarlicha ma'lumotga ega bo'lmagan odamlar bu muammo haqida qayg'urmasligi va tashvishlanmasligini aytib o'tdi. Global issiqlik haqida ma'lumoti yetarlicha bo'lgan aholi esa bu muammo haqida tashvishlanishini va global issiqlik muammosi bartaraf etilmasa bu tabiatga va insonlar hayotiga salbiy ta'sir etishini aytib o'tishdi. Global issiqlik ayniqsa sahar⁵⁶ kasalligi bor odamlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun harorat ko'tarilishi sababli sahar kasalligiga chalingan insonlarda bosh aylanishi, isitma ko'tarilishi va shu kabi alomatlar kuzatiladi.

Olib borilgan so'rovnoma ko'ra aholining 93,75 foizi global issiqlik kuchayishining asosiy sababi odamlarning tabiatga bo'lgan e'tiborsizligi tufayli degan fikrda bo'lsa, 6,25 foizi bu muammoga odamlar sababchi emas deb izoh berishdi. Shuning bilan birgalikda aholiga yoqilg'ida yuradigan va zaharli gaz chiqarib, atrof muhitni zararlaydigan avtomobillar o'rniga

⁵⁶ Organizmda insulin tanqisligi va moddalar almashinuvi buzilishi natijasida kelib chiqadigan kasallik. Bu kasallik shuningdek qandli diabet nomi bilan ham ataladi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

qaysi transport vositasidan foydalangan yaxshiroq degan ma’nodagi savol berildi. Aholining 73,33 foizi elektro avtomobillardan foydalangan yaxshiroq, chunki ular zaharli gaz ham chiqarmaydi va ekologiyani ifloslantirmaydi degan fikrni bildirishdi. 26,67 foizi esa elektro mashinalar narxi juda yuqori va hamma aholi bu turdagi mashinalarga o’tishsa elektr toki muammosi yanada keskinlashadi, shuning uchun uning o’rniga jamoat transportlari metro yoki tramvaydan foydalangan afzal deb bilishadi.

Bu so’rovnoma tufayli aholining global issiqlik haqidagi tushunchasi ham o’rganildi. So’rovnomada ishtirok etgan ishtirokchilarning yarmidan ko’pi global va anomal issiqlik deganda tabiatda haroratning oshishi tufayli kelib chiqadigan jarayon deb javob bergan bo’lsa, chorak qismi esa bu muammo inson faoliyati tufayli atmosferani qayta ishlashiga olib keladigan jarayon deb fikr bildirdi. Ularning 18,75 foizi esa global issiqlikka atmosferani ifloslanishi va yer qatlami yemirilishi sababli kelib chiqadigan muammo deb ta’rif bildirdi.

So’rovnoma so’ngida esa odamlardan bu muammo qanday bartaraf etish zarurligi so’raldi. Ishtirokchilarning aksariyati esa ko’proq daraxt ekilishi va odamlarning tabiatga, ekologiya tozaligiga e’tiborini kuchaytirish kerakligi ta’kidlandi. So’rovnoma natijalariga ko’ra bu muammoning asosiy sababchilari bu insonlarning o’zlari. Ular vayron qilayotgan o’rmonlar, kesib tashlayotgan daraxtlar va xohlagan joyiga uloqtirayotgan chiqindilar ekologiyaga o’z ta’sirini ko’rsatmasdan qolmaydi. So’rovnoma ishtirokchilarining fikriga ko’ra global issiqlikka ta’sir qilayotgan yana bir omil bu zavodlardan va yoqilg’ida yuradigan mashinalardan chiqayotgan zaharli tutunlar. Ularning fikriga ko’ra zavodlar faoliyatini to’xtatish kerak emas, balki buni oldini oladigan qurilma o’ylab topish va elektro avtomobillardan foydalanishimiz zarur. Lekin bu muammoni faqat olimlarning texnologiyalari va qurilmalari bilan to’xtatib bo’lmaydi. Global issiqlikning asosiy sababchisi odamlar bo’lganidek, uni oldini olish uchun ham oddiy aholi ya’ni odamlar birgalikda kurashishi kerak. Agar odamlar ekologiyaga bo’lgan qarashini o’zgartirib, unga zarar keltiradigan xavflar oldini olishga harakat qilmasa, bu muammoni to’xtatib qolish juda qiyin.

So’ngi kunlarda qutb mintaqalarida, xususan, Antarktida va Grelنديyada muzning tez yo’qolishini ko’rishimiz mumkin. Muzning tez yo’qolishi dengiz sathining ko’tarilishiga yordam beradi va qirg’oq bo’yidagi jamoalar va pasttekisliklar uchun uzoq muddatli xavf tug’diradi. G’arbiy Antarktika muz qatlamining bir qismi, asosan, okean suvlarining isishi tufayli tez erishni boshdan kechirmoqda. Bu dengiz sathining potentsial ko’tarilishi bilan bog’liq xavotirlarga olib keladi. Chunki bu mintaqa uzoq muddatda dengiz sathining metrlarga ko’tarilishiga hissa qo’shishi mumkin. Yana boshqa jihatdan, Antarktika muz tokchalari qit’adan okeanga muz oqimini sekinlashtirib, hayotiy tayanch vazifasini bajaradi. Hisobotlar shuni ko’rsatadiki, muz tokchasida erish va hajm kamayishi hodisalari ko’p uchraydi. Bu esa muz qatlamining barqaror holda qolmasdan erishiga va keyinchalik dengiz sathining ko’tarilishiga ham olib kelishi mumkin. Suv sathining ko’tarilishi, shuningdek, muz massasining yo’qolishi deb ham nomlanadi. Bu muammo keltirib chiqaradigan asosiy zarar bu tsunami.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Tsunami esa, asosan, okean va suvli hududlar atrofida uchraydi. Misol uchun: tsunamidani zararlantirgan davlatlar: Yaponiya, Chili, Rossiya, Alyaska va boshqalar. Bu muammo tufayli davlatlarning ko'p hududlari iqtisodiy va moliyaviy zarar ko'radi.

Global issiqlik nafaqat dengiz sathining ko'tarilishi, qurg'oqchilik, tsunami va bo'ronlar kabi jiddiy zararlar keltiradi. Bu muammo jonli tabiat, hayvonlar va odamlar so'lig'i uchun ham juda xavfli sanaladi. Misol uchun: bu muammo o'simliklarning to'liq va sog'lom o'sishiga to'sqinlik qiladi. Chunki havo juda yuqori darajada isib ketgani sababli, qurg'oqchilik va yong'irgarchilik kamayishiga olib keladi. Bu esa o'simliklarning yetarlicha suv bilan ta'minlanishiga va sog'lom rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Global issiqlikning, asosan, muzlikdagi jonizodlarga zarari yuqori. Misol uchun: qutb ayiqlari, pingvillar, dengiz mushuklari va boshqalar. Bu jonizodlar muzliklarning erishi tufayli yashash joylarini yo'qotadi, bu esa ularning oziq-ovqat uchun ov qilish va bolalarini boqish qobiliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu muammo shuningdek dengiz ekotizimlarining buzilishiga ham olib keladi. Okeanlarning isishi va kislotalanishi dengiz organizmlariga, shu jumladan qisqichbaqasimonlar, marjonlar va baliqlarga ta'sir qiladi. Bu esa biologik xilma-xillik va yashash joylarining yo'qolishiga olib keladi.

Global issiqlikni odamlar salomatligiga ta'sirini oladigan bo'lsak, bu muammo odamlarda ba'zi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin yoki ularning kasalini kuchaytirib yuborishi mumkin. Misol uchun, haroratning ko'tarilishi, ayniqsa keksalar va yosh bolalar kabi zaif aholi orasida issiqlik bilan bog'liq kasalliklar(isitma ko'tarilishi yoki qattiq terlash natijasida paydo bo'ladigan teri kasalliklari)ni ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, yuqori haroratlarda yer darajasida ozon va zarrachalar ishlab chiqarishni kuchaytirishi, astma va allergiya kabi nafas olish kasalliklarini kuchaytirishi mumkin.

Yong'irgarchilik tanqisligi bilan bo'lgan muammo suv bilan yuqadigan kasalliklar hamda, diareya kasallikini xavfini oshirishi mumkin. Bu muammo ekinlar hosildorligiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qo'ymaydi. Bu esa oziq-ovqat tanqisligiga va to'yib ovqatlanmaslikka olib kelishi mumkin, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga moslashtirilgan hududlarda. Odamlarning sog'lig'iga ta'sir qiladigan yana bir omil bu og'ir ob-havo hodisalari tufayli shikastlanishdir. Yuqorida ta'kidlab o'tgan tsunami va qum bo'ronlari tufayli odamlar juda jiddiy jarohat olishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, global isish nomutanosib ravishda aholining zaif qatlamlariga, jumladan, kam ta'minlangan jamoalarga, qariyalarga va yosh bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu turdagi aholiga anomal issiqlik haqidagi ma'lumotlarni doimiy ravishda ko'zdan kechirib borishi tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytish kerakki biz bu zararli jarayonga befarq bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, zararli gaz chiqindilarni qisqartirish global iqlim o'zgarishi tahdidlariga qarshi kurashish yetarli emas. Atmosferani karbonat angidrid bilan tozalash lozim. Buning eng samarali va tabiiy yo'li bu o'rmon hududlarini kengaytirish va shu bilan birgalikda sanoat zavodlari va yoqilg'ida yuradigan mashinalar qatnovini qisqartirib, elektron avtomobillarga o'tish, havo tozalaydigan zavodlar sonini ko'paytirish va eng muhimi atrof muhitga e'tiborli bo'lish ta'lab etiladi. Global

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

issiqlikni bartaraf etish juda qiyin tuyulishi mumkin, ammo shuni yodda tutish kerakki, uning ta'sirini yumshatish uchun odamlar va jamoalar birlashib bajarishi kerak bo'lgan vazifalar mavjud. Misol uchun: energiya sarfini kamaytirish, ekologik toza amaliyotlarni qo'llab-quvvatlash va barqaror siyosatni targ'ib qilish kabi omillarni olsak bo'ladi. Muhimi atrof-muhitga qarab qanday yordam bera olishingiz, nimalar qila olishingizni o'ylab ko'ring va shu maqsadda harakat qiling hamda boshqalarni ham bu yo'lda birlashtiring. Chunki birgalikda ishlash orqali insoniyat global isish oqibatlarini bartaraf etish va uning zararlarini to'xtatib qolish imkoniyatiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Issiqxona effekti” Toshniyozova Gulmira
2. “Tabiatning tugashi” Bill McKibben 1989-y.
3. “Global isish muammosi” Louise Ward
4. “Global isish sabablari va yechimlari” Meros Fond
5. “Moskva” Jizn Jivatnix 1968-1971
6. “O'zgidramet” yetakchisi mutaxassisi Erkin Abdulahatov(intervyu KUN.UZ)
7. “Yashab bo'lmaydigan Yer: isishdan keyingi hayot” David Wallace-Wells 2019-y.
8. “Yarim Yer: Bizning sayyoramizning hayot uchun kurashi” Edward O. 2016-y.
9. “Global isishni qaytarish uchun taklif qilingan reja” Paul Hawken 2017-y.
10. “Biz tanlagan kelajak: iqlim inqirozidan omon qolish” Christiana Figueres 2020-y.
11. “O'zgargan iqlim” Philippe Squarzoni 2014-y.

Elektron manbalar:

12. <https://carnegieendowment.org/>
13. <http://www.chathamhouse.org.uk/>
14. <https://www.csis.org/>
15. <https://imaniafrica.org/>
16. <http://en.ccg.org.cn/>
17. <http://www.urban.org/>
18. <https://www.cato.org/>
19. <https://www.rand.org/>
20. <https://carnegietsinghua.org/>
21. <http://www.bicc.de/>
22. <http://www.gazeta.uz/>
23. <http://earth.org/>

ДОЛЗАРБЛИГИНИ ЙЎҚОТМАГАН АСАРНИНГ ҚОРАҚАЛПОҚ САҲНАСИДАГИ ТАЛҚИНИ

Дарушова Дариха Кадирниязовна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти

Нукус филиали ўқитувчиси